

JALOLIDDIN MANGUBERDI JASORATI

Hojiyev Jahongir Davlat o'g'li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat Universiteti
Magistratura bo'limi Tarix mutaxassisligi 2 – kurs magistranti.

E- mail jahongirxajiyev2@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.18508505>

Annotatsiya. Ushbu moqolada Jaloliddin Manguberding Mo'g'ul bosqinchilariga qarshi olib borgan kurashlari haqida so'z boradi. Jaloliddin Manguberdi ona vatan ozodligi yo'lida mo'g'ullarga qarshi Niso, Nishopur, G'azna, Parvon, Sind daryosi, Isfahon yaqinida mo'g'ullarga qarshi olib borgan janglari haqida ma'lumot beriladi va dushmanga qarshi kurashishda qaysi jang taqtiqalaridan foydalangani ham tahlil qilinadi. Jaloliddin Manguberding vatan ozodligi yo'lida qilgan jangu- jadalari. Yozma manbalar va tarixiy dalillar asosida o'rganiladi va bugungi yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga hizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Mo'gullar, ona vatan, jangu – jadal, jang taqtikalari.

Аннотация. В данной статье рассказывается о борьбе Джалалуддина Мангуберди против монгольских захватчиков. Также анализируются бои Джалалуддина Мангуберди с монголами в районе Нисы, Нишапура, Газны, Парвана, реки Синд, Исфахана, а также тактика боя, которую он использовал в борьбе с врагом. Бои Джалалуддина Мангуберди за свободу Родины Оно изучается на основе письменных источников и исторических свидетельств и служит воспитанию современного молодого поколения в духе патриотизма.

Ключевые слова: монголы, родина, интенсивность боя, тактика боя.

Abstract. This article talks about Jalaluddin Manguberdi's struggle against the Mongol invaders. Jalaluddin Manguberdi's battles against the Mongols near Nisa, Nishapur, Ghazna, Parvan, Sind River, Isfahan, and the battle tactics he used to fight against the enemy are also analyzed. Jalaluddin Manguberdi's battles for the freedom of the homeland It is studied on the basis of written sources and historical evidence and serves to educate today's young generation in the spirit of patriotism.

Key words: Mongols, motherland, battle - intensity, battle tactics.

KIRISH

Xorazm – Markaziy Osiyoning eng qadimiy va boy tarixga ega mintaqalaridan biri bo'lib, ming yillar davomida siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishining muhim markazi bo'lgan.

Shu sababli Xorazmni egalashga dushmanlar turli davrlarda harakat qilishgan. Bular dastlab forslar, keyinchalik turk xoqonligi, arablar, mo'g'ullar, ruslar xorazmni bosib olishga harakat qilganlar. ammo maqsadlariga osonlikcha erishmaganlar.

Ajdodlarimiz ona vatan ozodligi yo'lida o'z jonlaridan ham kechgan lar. Bunday yurt o'g'lonlaridan biri Jaloliddin Manguberddir. Jaloliddin Manguberdi haqida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov quyidagi so'zlarni aytgan.

Bor- yo'g'i o'ttiz ikki yilgina umr ko'rgan bu bohodir zotning mo'tabar nomi o'zzamonasida dunyo bo'ylab qanchalar davruq taratgan bo'lsa, oradan ko'p – ko'p arslar o'tgach ham mardlik va ozodlik uchun kurash, el – yurtga fidoyilik timsoli sifatida yashab kelmoqda.

Uning qahramonligi kelajak avlodlarga, birinchi galda siz bilan bizga tarixiy xotira oldida boshimizni magʻrur tutib yashamogʻimiz uchun toʻla huquq beradi.

Islom Karimov

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Jaloliddin Manguberding vatan oldidagi jasorati tarixini oʻrganishda yozma manbalar hamda zamonaviy ilmiy adabiyotlar asos qilib olindi. Jaloliddin Manguberdi jasoratini oʻrganishda shu davr tarixchilari Shahobiddin An – Nasaviy, Juvayniy, Mirzo Ulugʻbek kabi tarixchilar. Zamonaviy tarixchilardan (Bartold, Karimov, Z.Bunyodov va boshqalar asarlaridan olgan maʼlumotlar asosida qiyoslab oʻrganildi.

Jaloliddin Manguberdi (1198-1231 yillarda) yashagan buyuk sarkarda Otasi Anushteginiylar sulolasidan Alovudin Muhammad Xorazmshoh onasi Oychechak. Jaloliddin Manguberdi moʻgʻullarga qarshi kurashni Chingizxon boshchiligidagi moʻgʻul qoʻshinlari Mavarounnahirga bostirib kirib birin – ketin shaharlarni egallab, Samarqandga yaqinlashganlarida Muhammad Xorazmshoh Kaspiy dengizi boʻyida joylashgan Ashura orolidan panohtopadi 1220 yil dekabrda ogʻir hastalikdan vafot etadi. Bu haqida Mirzo Ulugʻbek oʻzining <<Tarixi arba ulus >> nomli asarida shunday tasvirlaydi. << Muhammad Xorazmshoh orolda xor-u zorlikda vafot edi atrofdagilar har chan urinishmasin kafan topa olmadilar Muhammad Xorazmshohni oʻzi kiyib yurgan kiyimida dafn etdilar >> degan maʼlumotlarni yozib qoldiradi.

Muhammad Xorazmshoh vafot etishidan oldin toʻngʻich oʻgʻli Jaloliddin Manguberдини oʻziga valiyaht etib tayinlardi. oʻz qilichini oʻglining beliga taqib qoʻyadi. Jaloliddin Manguberdi ukalari Oqshoh va Qutbiddin Oʻzloqshohlar bilan birga Gurganch mudofasiga oshiqadi. Ammo Gurganchdagi qipchoq amirlari Xumortegin boshchiligidagi Jaloliddinga qarshi fitna uyushtiriladi bundan xabar topgan Jaloliddin Manguberdi Xoʻjand hokimi Temur Malik boshchiligidagi 300 nafar suvoriy bilan Xurosonga yoʻl oladi.

Niso shahri yaqinida ularni 700 nafar moʻgʻul suvoriysi kutadi. Jaloliddin Manguberdi bir necha kunlik shidatli janglardan soʻng ularni tor-mor keltirib, Nishopurga yoʻl oladi. Bu yerdan barcha viloyat hokimlariga nomalar joʻnatib, moʻgʻul bosqinchilariga qarshi birlashishga davat etadi. Yoʻlda unga Hirot voliysi qaynatasi Aminalmulk 10 ming kishilik qoʻshini bilan kelib qoʻshiladi. Qandahorni qamal qilib turgan moʻgʻul qoʻshinlari bilan 3 kunlik shidatli janglardan soʻng ularni yengan. Jaloliddin Manguberdi Gʻaznaga 1221 yilda kirib kelgan. Bu yerda unga xalaj qabilasi boshligʻi Sayfuddin Irgʻoq, Balx voliysi Aʼzam Malik, afgʻonlar sardori Muzaffar malik, qarlular yetakchisi Hasan Qarlui kelib qoʻshiladi.

Ularning harbirini ixtiyorida 30 ming kishilik qoʻshinlari bor edi. Jaloliddin Manguberding oʻzida 60 minglik suvoriy bor edi. Jaloliddin Manguberdi Valiyon qalasini qamal qilib qilqotgan Takajuq va Malgʻuq boshchiligidagi moʻgʻul qoʻshiniga hujum qilib 3 kunlik janglardan soʻng ularni yer tishlatdi, 1000 dan ortiq moʻgʻul askarlari oʻldirildi, qolgan qismi Panjshir dayosidan kechib oʻtib koʻprikni buzib tashladi. Valiyon qalʼasidagi jang Jaloliddin Manguberding moʻgʻullar ustidan qozonilgan yirik gʻalabasi edi.

Chingizxon Jaloliddin Manguberdiga qarshi Shiki Xutuxu noʻyoni 45 ming kishilik qoʻshin bilan joʻnatadi. Jaloliddin Manguberdi Parvon jangida yangi jang taktikasidan foydalanadi. Yaʼni jangchilariga otdan tushib, jilovlarini bellariga bogʻlashni va kamon bilan jang qilishni buyuradi. Tun qorongʻusiga qadar davom etgan jangda ikkitomonning birortasiga ham zafar nasib etmaydi. Ertasi kuni Ayqur noʻyon hiyla ishlatmoqchi boʻladi.

U dushmani ishonitirish maqsadida choponlar orasiga xashakdan soxta odam yasab sun'iy bosh yasab << Soxta jangchilarni>> tuyalar karvoni va arvalar orasiga joylashtirib madad kuchlari yetib kelganiga ishonitirmoqchi bo'ladi. Ammo bu reja ish bermaydi Jaloliddin Manguberdi Parvon dashtidagi jangda g'alaba qazonadi. Bu g'alabadan dahshatga tushgan Chingizxon Jaloliddin Manguberdiga qarshi shaxsan o'zi janga o'tlanadi. Biroq bu ga'laba Jaloliddin Manguberdiga qimmatga tushadi, aynan Parvon dashtidagi g'alabadan keyin o'ljalarni tahsimlash maslasida Jaloliddin Manguberdi lashkarlari orasida nizo kelib chiqadi va qo'shining tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Natijada Jaloliddin Manguberdi zayiflashib qoladi.

Chingizxon katta qo'shin to'plab Jaloliddin Manguberdiga qarshi shaxsan o'zi o'tlanadi. Fapdiz qal'asi yaqinida Jaloliddin Manguberdi Chingizxon qo'shini ilg'orini tormor keltiradi. Ammo jangni Chingizxoning pistirmada turgan 10 ming kishilik qo'shini jang taqdirini hal qiladi. 1221 yil 25- noyabrda bo'lgan jangda Jaloliddin Manguberdi o'zining 4000 kishilik askari bilab Sind daryosidan sakrab uning o'ng tomoniga suzib o'tadi. Shu zomondaberi Sind daryosining bir tarafi ot sakrash bo'lsa ikkinchi tamoni cho'li jaloliy dir. Jaloliddin Manguberdi jasoratiga qo'il qolgan Chingizxon o'z o'g'illariga qarab:<< Ota o'g'il manashunday bo'lishi lozim >> degan. Sind dayosidagi jangdan keyin ham Jaloliddin Mangubberdi mo'g'ullarga qarshi bir nacha yillar davomida kurash olib borib 1231 yilda vafot etgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Jaloliddin Manguberdi 11 yil davomida Xorazmshohlar saltanatiga Chingizxon boshliq Mo'g'ul bosqinchilarga qarshi tinim siz kurash olib bordi. Bu kurashlarda Jaloliddin Manguberdi O'zining mohir sarkardalik qobiliyatini nomoyon qildi mamlakatning turli hududlarida vatanni bosqinchi mo'g'ullardan tozalash yo'lida o'z joni ham ayamadan kurashdi ammo Jaloliddin Manguberdining bu harakatlari samarasiz bo'ldi chunki mamlakatning hamma joyida och ko'zlik hiyonatga duch keldi. Xorazmshohlar saltanatida ichki nizolar bosh-boshdoqliklar avj olgan paytda Jaloliddin Manguberdi dushmaga qarshi kurashga o'tlandi. Ammo xoyin amaldorlar va sarkardalarning nizolari va xiyonatlari Jaloliddin Manguberdining o'zidan bir necha barobar ko'p dushmanga qarshi vatan ozodligi yo'lida kurashida yengilishiga sabab bo'ldi. Natijada xalqning asrlar davomida to'plaga madaniyati yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'ldi.

XULOLA

Jaloliddin Manguberdi jasorati avvalombor Ona vatan ozodligi yo'lida dushmaga qarshi 11 yildomida kurash olib bordi. Vatan ozodligi yo'lida o'z joni va oilasidan ham vos kechdi. Mo'g'ullarning O'rta Osiyoga bostirib kelishiga sabab Muhammad Xorazmshohning olib borgan noto'g'iri diplomatiyasi sabab bo'ldi. Bundan tashqari Muhammad Xorazmshoh mo'g'ullarning kuchiga no'to'g'iri baho berishi sabab bo'ladi.

Keyin esa harbiy kengashda o'zining ishonchli sarkadalari Jaloliddin Manguberdi va Xo'jand hokimi Temur Maliklar tomonidan " Qo'shirlarni bir joyga to'plab yoki qo'shirlarni asosiy nuqtalarga joylashtirib dushmanga zarba berish " kerak degan fikrlarini ma'qullamasdan.

Barcha shahar va qal'alar o'zlarini o'zi himoya qilsin degan qorori mo'g'ul bosqinchilariga qo'l keladi ular osonlikcha mamlakatning katta hududlarini qo'lga kiritadilar. Ammo shunday bo'lsada Jaloliddin Manguberdi va Temur Malik singari mard o'g'lonlar dushmanga qarshi mardonavor kurash olib bordilar. Jaloliddin Manguberdi nomi bugungi avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim manba bo'lib hizmat qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Bunyodov Ziyov "Anushtegin Xorazmshohlar davlati " T 1998 yil

2. Alovuddin Atomalik Juvayniy “Tarixi – jahonkushoy (1260 y)
3. Shahobiddin an – Nasaviy “ Siyrat as – sulton Jaloliddin Manguberdi “ 1241 yil
4. Mirzo Ulug’bek “ Tarixi arba ulus” XV asr
5. Qudrat Masharipov “Jaloliddin Manguberdi jahon siyosiy va harbiy tarixidagi o’rni “ 2021 yil